MAHALLA, MAKTAB VA OILA HAMKORLIK TIZIMIDA INKLYUZIV RAQAMLI TARBIYA MODELINI YARATISH VA JORIY ETISHNING METODIK ASOSLARI

Karimov Komiljon Abduraximovich
pedagogika fanlari doktori, dotsent,
Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti
“Inklyuziv ta’lim-tarbiya metodikasi ilmiy-tadqiqot” bo‘limi boshlig‘i

Annotatsiya: Maqolada jamiyatda alohida ta’lim va tarbiya ehtiyojlariga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratish, mahalla, maktab hamda oila hamkorligida inklyuziv raqamli tarbiya modelini yaratish va amaliyotga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari yoritilgan. Muallif “inklyuziv raqamli tarbiya” tushunchasi, uning asosiy tamoyillari hamda modelning 5 ta tarkibiy komponentini (maqsadli, mazmuniy, subyektlararo hamkorlik, texnologik va monitoring) izchil ta’riflab beradi. Shuningdek, alohida ehtiyojli bolalarning raqamli muhitdagi xavfsizligini ta’minlash, kiberbullingning oldini olish va ota-onalar hamda pedagoglarning inklyuziv-raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, inklyuziv raqamli tarbiya, mahalla-maktab-oila hamkorligi, raqamli pedagogika, kiberxavfsizlik, kiberbulling, individual yondashuv, raqamli muhit, tarbiya modeli.

Аннотация: В статье освещаются научно-методические основы создания равных возможностей для учащихся с особыми образовательными и воспитательными потребностями в обществе, создания и внедрения в практику модели инклюзивного цифрового образования в сотрудничестве махалли, школы и семьи. Автор последовательно определяет понятие «инклюзивное цифровое воспитание», его основные принципы и 5 структурных компонентов модели (целевой, содержательный, межсубъектное сотрудничество, технологический и мониторинговый). Также проанализированы вопросы обеспечения безопасности детей с особыми потребностями в цифровой среде, предотвращения кибербуллинга и развития инклюзивных цифровых компетенций родителей и педагогов.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, инклюзивное цифровое воспитание, сотрудничество махалля-школа-семья,

цифровая педагогика, кибербезопасность, кибербуллинг, индивидуальный подход, цифровая среда, модель воспитания.

Abstract: This article highlights the scientific and methodological foundations of creating equal opportunities for students with special educational and upbringing needs in society, as well as creating and implementing an inclusive digital education model in cooperation with the mahalla, school, and family. The author consistently defines the concept of “inclusive digital education”, its main principles, and the 5 structural components of the model (targeted, substantive, inter-subject cooperation, technological, and monitoring). It also analyzes issues of ensuring the safety of children with special needs in the digital environment, preventing cyberbullying, and developing the inclusive digital competencies of parents and educators.

Keywords: Inclusive education, inclusive digital upbringing, mahalla-school-family cooperation, digital pedagogy, cybersecurity, cyberbullying, individual approach, digital environment, upbringing model.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida inklyuziv ta’lim va raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Jamiyatda barcha bolalar, jumladan, jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy jihatdan alohida ehtiyojlarga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlarni yaratish nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-ma’naviy vazifa hamdir.

Shu nuqtayi nazardan, tarbiyaviy jarayonlarni faqat maktab doirasida emas, balki mahalla va oila bilan uzviy hamkorlikda, raqamli texnologiyalar asosida boshqarish inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, raqamli muhit inklyuziv tarbiya jarayonida individual yondashuv, moslashtirilgan pedagogik ta’sir va doimiy monitoringni ta’minlash imkonini beradi.

Inklyuziv ta’lim va tarbiya uyg‘unligining ilmiy-pedagogik asoslari Inklyuziv ta’lim – bu barcha o‘quvchilar, ularning individual imkoniyatlari va ehtiyojlaridan qat’i nazar, ta’lim-tarbiya jarayoniga to‘liq jalb etilishini ta’minlovchi pedagogik yondashuvdir. Inklyuziv tarbiya esa shaxsning ijtimoiy moslashuvi, muloqot madaniyati, o‘zini jamiyatning teng a’zosi sifatida his etishini shakllantirishga qaratilgan uzluksiz jarayondir.

Inklyuziv ta’lim sharoitida tarbiya quyidagi vazifalarni bajaradi: alohida ta’lim ehtiyojlariga ega bolalarda o‘ziga ishonch va ijtimoiy faollikni rivojlantirish; sog‘lom o‘quvchilarda bag‘rikenglik va empatiya ko‘nikmalarini shakllantirish; jamiyatda ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillarini mustahkamlash.

Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda raqamli texnologiyalar muhim pedagogik resurs sifatida namoyon bo‘ladi.

“Inklyuziv raqamli tarbiya” tushunchasi va uning mazmuni “Inklyuziv raqamli tarbiya” – bu raqamli texnologiyalar asosida barcha o‘quvchilar, jumladan, alohida ehtiyojlarga ega bolalar uchun moslashtirilgan, ochiq va qo‘llab-quvvatlovchi tarbiyaviy muhitni yaratishga qaratilgan pedagogik faoliyatdir.

Inklyuziv raqamli tarbiyaning asosiy tamoyillari: tenglik va ochiqlik; individuallashtirish va moslashuvchanlik; ijtimoiy hamkorlik va qo‘llab-quvvatlash; axborot xavfsizligi va raqamli madaniyat.

Bu yondashuv tarbiyaviy ta’sirni faqat sinf yoki maktab bilan cheklab qo‘ymasdan, oila va mahalla muhitiga ham keng yoyish imkonini beradi.

Mahalla-maktab-oila hamkorligida inklyuziv raqamli tarbiya modelining tuzilmasi Taklif etilayotgan model quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

1. Maqsadli komponent: inklyuziv muhitda barkamol shaxsni tarbiyalash; alohida ehtiyojlarga ega o‘quvchilarning ijtimoiy moslashuvini ta’minlash.

2. Mazmuniy komponent: inklyuziv tarbiya bo‘yicha raqamli metodik materiallar; moslashtirilgan tarbiyaviy dasturlar va multimedia kontent.

3. Subyektlararo hamkorlik komponenti: maktab – pedagogik boshqaruv markazi; oila – individual tarbiya muhiti; mahalla – ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va integratsiya instituti.

4. Texnologik komponen: maxsus raqamli platformalar va ilovalar; masofaviy maslahatlar va onlayn tarbiyaviy tadbirlar.

5. Monitoring va baholash komponenti: raqamli diagnostika vositalari; inklyuziv tarbiyaviy jarayon samaradorligini tahlil qilish.

Inklyuziv raqamli tarbiyani metodik boshqarish mexanizmlari Inklyuziv raqamli tarbiya jarayonini samarali boshqarish uchun: pedagog va ota-onalar uchun inklyuziv-raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish; mahalla faollari ishtirokida ijtimoiy-pedagogik monitoring; xavf guruhidagi bolalar bilan individual raqamli tarbiya rejalari ishlab chiqish zarur.

Inklyuziv raqamli tarbiyada raqamli xavfsizlik masalalari Alohida ehtiyojlarga ega bolalar raqamli muhitda ko‘proq psixologik xavflarga duch kelishi mumkin. Shu sababli kiberbullingning oldini olish; ota-onalar va pedagoglar uchun raqamli nazorat mexanizmlarini kuchaytirish; bolalarda raqamli o‘zini himoyalash ko‘nikmalarini shakllantirish

muhimdir.

Mahalla, maktab va oila hamkorligida inklyuziv raqamli tarbiya modelini yaratish zamonaviy ta’lim tizimining dolzarb vazifalaridan biridir. Ushbu model barcha bolalar uchun teng tarbiyaviy imkoniyatlarni yaratish, ularning ijtimoiy moslashuvi va ma’naviy kamolotini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur ilmiy yondashuv inklyuziv ta’limni rivojlantirishda metodik asos bo‘lib, respublika miqyosida tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent, 2022.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2020.

3. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi. – Toshkent, 2021.

4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent, 2018.

6. Salomov Sh. Tarbiya pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2020.

7. Qodirova F.R. Inklyuziv ta’lim asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.

8. Abdurahmonov O. Ijtimoiy pedagogika va tarbiya. – Toshkent, 2021.

9. Sharipov Sh.S. Mahalla pedagogikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.